Алиева Эльнара Аметовна, Рахматхонов Саидодилхон Расулхон угли	
МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В СТРАНАХ С РАЗВИВАЮЩЕЙСЯ ЭКОНОМИКОЙ: РОЛЬ ESG-ИНСТРУМЕНТОВ, ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ РЫНКА ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И МАЛАЙЗИИ.....	884
Нарзуллаева Мехрангиз Ақобировна	
DORIVOR O'SIMLIKLAR SAVDOSIDA QIYMAT ZANJIRI TAHLILI: IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILLARI.....	893
Maftuna Ermatova Arslonbek qizi	
O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON O'RTASIDAGI SAVDO AYLANMASI TAHLILI	899
Voxidova Mehri Xasanovna	
GLOBAL KOMPANIYALARDA RAQAMLI MENEJMENTNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	905
Axmedov Sardor Shuxrat o'g'li	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOLOGIK-HUQUQIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH.....	912
Jumanazar Xolmuminov	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI	916
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARNING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	921
Rahmatullayev Bobir Chorshamiyevich	



FINANCING WATER RESILIENCE: A FEASIBILITY ANALYSIS OF SOVEREIGN BLUE BOND ISSUANCE IN UZBEKISTAN.....	926
Yakubov Jakhongir	
УКРЕПЛЕНИЕ ПАРТНЁРСТВО И СОЗДАНИЕ ЕДИНСТВЕННОГО ЭНЕРГОРЫНКА В УЗБЕКИСТАНЕ	929
Каримова Нуржахон Олим кизи	
ИННОВАЦИОННАЯ ЗРЕЛОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ КОМПЛЕКСНОЙ МОДЕЛИ	935
Алиева Эльнара Аметовна, Табаков Евгений Сергеевич	
"BUDJET JARAYONLARIDA XAVFLARNI ANIQLASH VA BAHOLASH: ICHKI AUDIT YONDASHUVLARI"	941
Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna, Nishonxo'djaev Bekzod Baxodir o'g'li	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA DAVLATNING ROLI	947
Raximov Baxromjon Ibroximovich	
O'ZBEKISTONDA SUT SEKTORINING QIYMAT ZANJIRINI SANOATLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	951
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBIDA XARAJATLAR HISOBİ VA KALKULYATSIYA TIZIMLARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	955
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi	
АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ	961
Ариф Мустафаев	
ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ.....	968
Ишонкулова Феруза Асатовна	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION HUQUQIY SIYOSATIDA GLOBAL REYTINGLARNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	974
Gavhar Bekmurodova Adham qizi	
XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	981
Ochilova Xusniya Olim qizi, Yuldasheva Umida Asanaliyevna	
JAHONDA BRONLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINING EVOLYUTSIYASI.....	987
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJRIBALARI.....	994
Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li	
HUDUDIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDI RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI	1002
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASHTERINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	1016
Авезова Шахноза Махмуджановна	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODEL.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafruz Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zadfarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	



MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Akramov Toxir Abdiraxmanovich

TDIU "Marketing" kafedrası professori, DSc

Orcid: 0009-0003-4536-502X

E-mail: t.akramov@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada marketing kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishning zamonaviy yondashuvlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, iste'molchi xulq-atvoridagi o'zgarishlar va bozor raqobatining kuchayishi sharoitida marketing kommunikatsiyalarini rejalashtirish va boshqarish masalalarining dolzarbligi asoslab beriladi. Tadqiqot jarayonida marketing kommunikatsiya strategiyasi tushunchasining nazariy asoslari o'rganilib, integratsiyalashgan marketing kommunikatsiyalari, omnichannel yondashuv, ma'lumotlarga asoslangan marketing hamda raqamli platformalardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari yoritiladi. Ilmiy tahlil natijalari zamonaviy marketing kommunikatsiya strategiyalarining samaradorligi iste'molchi markazli yondashuv, shaxsiylashtirilgan kontent va raqamli texnologiyalar bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Maqolada olingan xulosalar marketing faoliyatini takomillashtirish, kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish va korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: marketing kommunikatsiyalari, kommunikatsiya strategiyasi, integratsiyalashgan marketing kommunikatsiyalari, raqamli marketing, omnichannel yondashuv, iste'molchi xulq-atvori, shaxsiylashtirilgan kontent, ma'lumotlarga asoslangan marketing.

Abstract. This article provides a scientific analysis of modern approaches to developing marketing communication strategies. The relevance of planning and managing marketing communications under conditions of rapid digital technology development, changes in consumer behavior, and increased market competition is substantiated. The study examines the theoretical foundations of the concept of marketing communication strategy and highlights the specific features of integrated marketing communications, the omnichannel approach, data-driven marketing, and the use of digital platforms. The results of the analysis demonstrate that the effectiveness of modern marketing communication strategies is directly related to a customer-oriented approach, personalized content, and the application of digital technologies. The conclusions drawn in the article have practical significance for improving marketing activities, making scientifically grounded decisions in the development of communication strategies, and enhancing the competitiveness of enterprises.

Key words: marketing communications, communication strategy, integrated marketing communications, digital marketing, omnichannel approach, consumer behavior, personalized content, data-driven marketing.

Аннотация. В данной статье научно анализируются современные подходы к разработке стратегий маркетинговых коммуникаций. Обосновывается актуальность вопросов планирования и управления маркетинговыми коммуникациями в условиях развития цифровых технологий, изменений в поведении потребителей и усиления рыночной конкуренции. В ходе исследования изучены теоретические основы понятия стратегии маркетинговых коммуникаций, а также раскрыты особенности интегрированных маркетинговых коммуникаций, омниканального подхода, маркетинга, основанного на данных, и использования цифровых платформ. Результаты научного анализа показывают, что эффективность современных стратегий маркетинговых коммуникаций напрямую связана с ориентацией на потребителя, персонализированным контентом и применением цифровых технологий. Полученные в статье выводы имеют практическое значение для совершенствования маркетинговой деятельности, принятия научно обоснованных решений при разработке коммуникационных стратегий и повышения конкурентоспособности предприятий.

Ключевые слова: маркетинговые коммуникации, коммуникационная стратегия, интегрированные маркетинговые коммуникации, цифровой маркетинг, омниканальный подход, поведение потребителей, персонализированный контент, маркетинг, основанный на данных.



KIRISH

Zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida marketing kommunikatsiya strategiyalari korxonalar va tashkilotlarning raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim strategik omillardan biriga aylanmoqda. Globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda iste'molchi xulq-atvoridagi tub o'zgarishlar marketing kommunikatsiyalarini rejalashtirish va amalga oshirishga bo'lgan an'anaviy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Axborot oqimlarining keskin ortishi va kommunikatsiya kanallarining ko'payishi sharoitida korxonalar uchun iste'molchi bilan samarali va uzluksiz aloqani ta'minlash strategik ustuvor vazifaga aylanmoqda.

So'nggi yillarda marketing kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda integratsiyalashgan marketing kommunikatsiyalari konsepsiyasi, omnichannel yondashuv, raqamli marketing vositalari va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish mexanizmlarining ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu yondashuvlar korxonalarga iste'molchilar bilan o'zaro aloqani shaxsiylashtirish, mijoz tajribasini yaxshilash va kommunikatsiya samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) va marketing avtomatlashtirish texnologiyalarining joriy etilishi marketing kommunikatsiyalarining mazmuni va shakliga yangi talablar qo'ymoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, marketing kommunikatsiya strategiyalariga bag'ishlangan tadqiqotlar soni ortib borayotgan bo'lsa-da, ularni ishlab chiqishda zamonaviy raqamli yondashuvlar va iste'molchi markazli konsepsiyalarni tizimli ravishda birlashtirish masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Ayniqsa, marketing kommunikatsiyalarini strategik rejalashtirish jarayonida turli kommunikatsiya kanallarini muvofiqlashtirish va ularning samaradorligini baholash muammolari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi marketing kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishning zamonaviy yondashuvlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning asosiy xususiyatlarini aniqlash hamda amaliy samaradorligini baholashdan iborat. Tadqiqot doirasida marketing kommunikatsiya strategiyasi tushunchasining nazariy asoslari, zamonaviy integratsiyalashgan va raqamli yondashuvlarning ustunliklari hamda ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari o'rganiladi. Olingan natijalar marketing faoliyatini takomillashtirish, kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Marketing kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish masalalari marketing nazariyasi va amaliyotida muhim o'rin egallab kelmoqda. Dastlabki ilmiy yondashuvlarda marketing kommunikatsiyalari asosan reklama, savdo rag'batlantirish va jamoatchilik bilan aloqalar kabi alohida funksional yo'nalishlar sifatida talqin qilingan. Xususan, Kotler marketing kommunikatsiyalarini iste'molchi bilan axborot almashinuvi va brend imijini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida izohlaydi [1]. Ushbu yondashuvda kommunikatsiya jarayoni ko'proq bir yo'nalishli axborot uzatishga asoslangan.

Keyingi tadqiqotlarda marketing kommunikatsiyalarining integratsiyalashgan yondashuvi shakllandi. Schultz va Kitchen integratsiyalashgan marketing kommunikatsiyalari konsepsiyasini ilgari surib, turli kommunikatsiya kanallarini yagona strategik maqsad asosida muvofiqlashtirish zarurligini asoslab bergan [2]. Ushbu yondashuvga ko'ra, reklama, PR, raqamli marketing va shaxsiy sotuv o'zaro uyg'unlashgan holda iste'molchiga yagona kommunikatsion xabar yetkazishi lozim.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi marketing kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda yangi ilmiy yondashuvlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Chaffey va Ellis-Chadwick raqamli marketingni iste'molchi bilan interaktiv va doimiy aloqani ta'minlovchi strategik instrument sifatida baholaydi [3]. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, raqamli platformalar marketing kommunikatsiyalarining aniqligi va o'lchovlilikini oshirish imkonini beradi.

So'nggi ilmiy adabiyotlarda omnichannel yondashuv alohida e'tiborga loyiq yo'nalish sifatida qaralmoqda. Verhoef va hammualliflar omnichannel strategiyani iste'molchi tajribasini yaxshilashga qaratilgan kompleks kommunikatsiya modeli sifatida tavsiflaydi [4]. Ushbu yondashuv marketing kommunikatsiyalarini nafaqat kanallar kesimida, balki iste'molchining butun xarid jarayoni davomida uzluksiz aloqani ta'minlash nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadi.

Ma'lumotlarga asoslangan marketing (data-driven marketing) zamonaviy marketing kommunikatsiya strategiyalarining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinmoqda. Wedel va Kannan marketing qarorlarini qabul qilishda katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanish kommunikatsiya samaradorligini sezilarli darajada



oshirishini ta'kidlaydi [5]. Ushbu yondashuv marketing xabarlarini shaxsiylashtirish va aniq maqsadli auditoriyaga yo'naltirish imkonini beradi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham marketing kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari o'rganilgan. O'zbekistonlik olimlar marketing strategiyalarini ishlab chiqishda milliy bozor xususiyatlari, iste'molchi xulq-atvori va raqamli transformatsiya jarayonlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydilar [6]. Shu bilan birga, mahalliy adabiyotlarda marketing kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda zamonaviy integratsiyalashgan va omnichannel yondashuvlarning amaliy mexanizmlari yetarli darajada yoritilmagan.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, marketing kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy qarashlar evolyutsion rivojlanib, an'anaviy kommunikatsiya modellardan integratsiyalashgan va raqamli yondashuvlarga o'tmoqda. Biroq zamonaviy marketing kommunikatsiya strategiyalarini kompleks tizim sifatida, ya'ni raqamli texnologiyalar, iste'molchi markazli yondashuv va strategik rejalashtirishni birlashtirgan holda o'rganish masalasi hanz dolzarb bo'lib qolmoqda. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy ish sof nazariy yondashuv asosida tashkil etilgan bo'lib, marketing kommunikatsiya strategiyalarini kontseptual tahlil qilishga yo'naltirilgan. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida kontent tahlili va qiyosiy strukturalashtirishdan foydalanilgan. Tanlangan metodlar xalqaro ilmiy maqolalar, strategik model va amaliy tajribalarni tizimlashtirish imkonini beradi.

Tahlil jarayonida metodologik yaxlitlikni ta'minlash uchun marketing, marketing kommunikatsiya strategiyalari tanlab olingan. Nazariy-analitik yondashuv marketing kommunikatsiya strategik qarorlar qabul qilish mexanizmlarini tushunish uchun asosiy ilmiy shakllantiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy marketing muhitida kommunikatsiya strategiyalarining samaradorligi ularning integratsiyalashganligi, raqamli texnologiyalar bilan uyg'unligi va iste'molchi ehtiyojlariga moslashuv darajasi bilan belgilanadi. Tadqiqot doirasida marketing kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar tizimli tahlil qilindi va ularning asosiy funksional elementlari aniqlab berildi.


Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy marketing kommunikatsiyalariga nisbatan zamonaviy yondashuvlar ko'p kanalli va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlariga tayangan holda shakllanmoqda. Xususan, integratsiyalashgan marketing kommunikatsiyalari modeli turli kommunikatsiya kanallari (reklama, ijtimoiy tarmoqlar, PR, mobil marketing va elektron savdo) o'rtasida yagona strategik xabarni shakllantirish imkonini bermoqda. Bu esa iste'molchida brend haqidagi yaxlit tasavvurni kuchaytirib, kommunikatsiya samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, omnichannel yondashuv marketing kommunikatsiya strategiyalarining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu yondashuv iste'molchi bilan barcha aloqa nuqtalarida uzluksiz va moslashtirilgan muloqotni ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada iste'molchi tajribasi yaxshilanib, marketing xabarlarining qabul qilinishi va esda qolish darajasi ortadi. Bu holat zamonaviy marketing nazariyalarida ilgari surilgan iste'molchi markazli yondashuvning amaliy tasdig'i sifatida baholanadi.

Ma'lumotlarga asoslangan marketing (data-driven marketing) kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda muhim analitik asos vazifasini bajarmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, katta hajmdagi ma'lumotlar va raqamli tahlil vositalaridan foydalanish maqsadli auditoriyani aniqlash, xabarlarini shaxsiylashtirish va marketing kampaniyalari natijadorligini baholash imkonini kengaytiradi. Bu jarayon marketing resurslaridan samarali foydalanish va xarajatlarning optimallashtirilishiga olib keladi.

Quyidagi rasmda marketing kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishning zamonaviy konseptual modeli aks ettirilgan bo'lib, unda strategik boshqaruv, raqamli texnologiyalar va iste'molchi tajribasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ko'rsatilgan.

1-rasmda ko'rsatilganidek, marketing kommunikatsiya strategiyasi markazida iste'molchi joylashib, uning ehtiyojlari va xulq-atvori barcha strategik qarorlarning asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi. Strategik rejalashtirish bloki kommunikatsiya maqsadlari va xabarlarining aniqlanishini ta'minlasa, raqamli platformalar va ma'lumotlar tahlili ushbu xabarlarini samarali yetkazish mexanizmini shakllantiradi. Nazorat va teskari aloqa tizimi esa kommunikatsiya strategiyasini doimiy takomillashtirish imkonini beradi.



1-rasm. Marketing kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishning zamonaviy konseptual modeli[7]

Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy marketing kommunikatsiya strategiyalarining samaradorligi quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi: kommunikatsiya kanallarining integratsiyalashuvi, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi, iste'molchi tajribasiga yo'naltirilganlik va analitik yondashuvning mavjudligi. Ushbu omillar o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanilganda marketing kommunikatsiyalarining bozor natijadorligi sezilarli darajada oshadi.

Marketing kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda zamonaviy yondashuvlarning ustunligini tasdiqlaydi va ularni amaliyotga joriy etish korxonalar uchun uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Marketing kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati va ustuvorligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, kommunikatsiya kanallarining ko'payishi va iste'molchi xulq-atvoridagi o'zgarishlar marketing kommunikatsiyalarini an'anaviy yondashuvlar asosida boshqarishni samarasiz qilmoqda. Shu sababli marketing kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda integratsiyalashgan, omnichannel va ma'lumotlarga asoslangan yondashuvlarni qo'llash zarurati yuzaga kelmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, zamonaviy marketing kommunikatsiya strategiyalarining samaradorligi, avvalo, iste'molchi markazli yondashuvga asoslanishi bilan belgilanadi. Mijozni chuqur tushunish, uning ehtiyojlari va xulq-atvorini tahlil qilish, shuningdek shaxsiylashtirilgan marketing xabarlarini yetkazish kommunikatsiya samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Integratsiyalashgan marketing kommunikatsiyalari modeli esa turli kommunikatsiya kanallarini yagona strategik maqsad asosida muvofiqlashtirish orqali brend imijini mustahkamlash va iste'molchi ishonchini kuchaytirishga xizmat qiladi.



Olingan ilmiy natijalar asosida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Birinchidan, korxonalar marketing kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda omnichannel yondashuvni ustuvor yo'nalish sifatida belgilashi va barcha aloqa kanallarini yagona axborot maydoniga integratsiya qilishi lozim. Ikkinchidan, marketing qarorlarini qabul qilishda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini keng joriy etish, ya'ni iste'molchi ma'lumotlarini yig'ish, tahlil qilish va prognozlash jarayonlarini takomillashtirish zarur.

Marketing kommunikatsiya strategiyalarida shaxsiylashtirilgan kontent va individual takliflardan foydalanish orqali iste'molchi bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish tavsiya etiladi. To'rtinchidan, kommunikatsiya samaradorligini baholash uchun aniq indikatorlar tizimini joriy etish va monitoring mexanizmlarini kuchaytirish marketing resurslaridan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, marketing kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda zamonaviy yondashuvlarni tizimli va izchil qo'llash korxonalarning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshiradi, raqobatbardosh ustunlikni shakllantiradi va marketing faoliyatining umumiy samaradorligini ta'minlaydi. Mazkur tadqiqot natijalari marketing kommunikatsiya strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy qarorlar qabul qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kotler P., Keller K. Marketing Management. – Pearson Education, 2016;
2. Schultz D.E., Kitchen P.J. Communicating Globally: An Integrated Marketing Approach. – Palgrave Macmillan, 2000;
3. Chaffey D., Ellis-Chadwick F. Digital Marketing. – Pearson Education, 2019;
4. Verhoef P.C., Kannan P.K., Inman J.J. From multi-channel retailing to omni-channel retailing. Journal of Retailing, 2015;
5. Wedel M., Kannan P.K. Marketing Analytics for Data-Rich Environments. Journal of Marketing, 2016;
6. Abdullayev A., Rahimov B. Marketing strategiyasi va raqamli marketing asoslari. – Toshkent, 2021;
7. Muallif ishlanmasi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
